# BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING O'QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INKLYUZIV YONDASHUV VA PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK HAMKORLIK

**Turg'unboyev Sirojiddin Faxriddinovich**
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti doktoranti, PhD, dotsent.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirish masalasi pedagogik va psixologik yordamni tashkil etish bilan uzviy bog'liqligi hamda o'qish savodxonligi matnni ravon o'qish bilangina cheklanmay, axborotni tushunish, talqin qilish, xulosa chiqarish va uni turli vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini ham qamrab olishga doir tahlillar keltirilgan. Shuningdek, o'quvchilarning individual ehtiyojlarini hisobga olish, o'qituvchi, psixolog, maxsus pedagog, logoped va ota-onalar hamkorligini yo'lga qo'yish bo'yicha amaliy tavsiyalar aks ettirilgan.

**Kalit so'zlar:** o'qish savodxonligi, boshlang'ich ta'lim, inklyuziv ta'lim, pedagogik yordam, psixologik yordam, hamkorlik, individual yondashuv.

**Аннотация.** В данной статье представлены анализ и обоснование взаимосвязи развития читательской грамотности учащихся начальных классов в условиях инклюзивного образования с организацией педагогической и психологической помощи. Отмечается, что читательская грамотность не ограничивается беглым чтением текста, а включает навыки понимания и интерпретации информации, формулирования выводов и применения полученных знаний в различных ситуациях. Кроме того, представлены практические рекомендации по учёту индивидуальных потребностей учащихся и организации сотрудничества между учителем, психологом, специальным педагогом, логопедом и родителями.

**Ключевые слова:** читательская грамотность, начальное образование, инклюзивное образование, педагогическая помощь, психологическая помощь, сотрудничество, индивидуальный подход.

**Abstract.** This article presents an analysis of the relationship between the development of reading literacy among primary school pupils in inclusive education settings and the provision of pedagogical and psychological support. It emphasizes that reading literacy is not limited to fluent reading but also encompasses the skills of understanding and interpreting information, drawing conclusions, and applying acquired knowledge in various situations. Furthermore, the article provides practical recommendations for addressing pupils' individual needs and fostering collaboration

among teachers, psychologists, special education teachers, speech-language therapists, and parents.

**Keywords:** reading literacy, primary education, inclusive education, pedagogical support, psychological support, collaboration, individual approach.

Bugungi ta'lim tizimida har bir bolaning sifatli ta'lim olish imkoniyatini ta'minlash, uning individual xususiyatlari va ta'lim ehtiyojlarini hisobga olish muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida o'qish savodxonligini rivojlantirish keyingi fanlarni o'zlashtirish, mustaqil fikrlash va kundalik hayotda axborotdan foydalanish uchun poydevor yaratadi[7]. Shu sababli o'qishdagi qiyinchiliklarni faqat o'quvchining individual kamchiligi sifatida baholash emas, balki o'qitish usullari, ta'lim muhiti, topshiriqlar murakkabligi va ko'rsatilayotgan yordamning muvofiqligini ham tahlil qilish zarur[8].

PIRLS xalqaro tadqiqotida o'qish savodxonligi o'quvchining yozma matnlarni tushunishi va ulardan foydalanishi, matn ustida fikr yuritishi hamda o'qish orqali bilimini kengaytirishi bilan bog'liq holda talqin etiladi[1]. Bu yondashuv boshlang'ich sinflarda o'qishni mexanik ravishda o'rgatishdan ko'ra, matnni anglash, muhim ma'lumotni ajratish, sabab-oqibat aloqalarini aniqlash va mustaqil xulosa chiqarishga yo'naltirilgan ishlarni kuchaytirishni talab etadi[6].

Inklyuziv ta'limning asosiy tamoyili – barcha o'quvchilarning ta'lim jarayonida ishtirok etishi va o'z imkoniyatlariga muvofiq natijaga erishishi uchun sharoit yaratishdir. UNESCO ta'limdagi inklyuziya va tenglikni ta'lim tizimining barcha o'quvchilar xilma-xilligiga javob bera olishi bilan bog'laydi[2]. Demak, o'qish savodxonligini rivojlantirishda yagona topshiriq va yagona bajarish tezligini barcha bolalardan bir xil talab qilish o'rniga, o'quv maqsadini saqlagan holda topshiriqni bajarish yo'li, matn hajmi, qo'llab-quvvatlash darajasi va ajratilgan vaqtni moslashtirish lozim.

Alohida ta'lim ehtiyojlariga ega o'quvchilarda o'qish jarayonidagi qiyinchiliklar turlicha namoyon bo'lishi mumkin. Ayrim bolalar tovush-harf munosabatlarini o'zlashtirishda, boshqalari so'z ma'nosini anglash, gaplar orasidagi bog'lanishni tushunish yoki matndan xulosa chiqarishda qiynaladi. Eshitishida, nutqida, ko'rishida yoki rivojlanishida o'ziga xosliklari bo'lgan o'quvchilarga topshiriqni idrok etish va javob berishning maqbul usullarini tanlashda yordam zarur bo'lishi mumkin. Bunda bolaning imkoniyatlari, yoshi, avvalgi bilimlari va rivojlanish sur'ati e'tiborga olinadi.

Universal ta'lim dizayni yondashuvi ta'lim mazmunini turli yo'llar bilan taqdim etish, o'quvchining bilimini turli shakllarda namoyish qilishiga imkon berish hamda o'qishga jalb etuvchi usullardan foydalanishni tavsiya qiladi[3]. O'quvchilarning axborot matnlari bilan ishlash natijalarini tahlil qilishga oid tadqiqotlar ham bu

yo‘nalishning ahamiyatini ko‘rsatadi[9]. Masalan, matnni o‘qishdan oldin asosiy tushunchalarni izohlash, matnni kichik qismlarga ajratish, o‘qish davomida mazmun yuzasidan savollar berish, matnni qayta hikoyalash yoki rasm va jadval asosida ketma-ketlikni aniqlash topshiriqlaridan foydalanish mumkin. Bunday usullar o‘quvchining mustaqilligini cheklamasdan, matnni tushunishiga ko‘maklashadi.

O‘qish savodxonligini rivojlantirish bo‘yicha barqaror natijaga erishish uchun sinf o‘qituvchisining faoliyati boshqa mutaxassislar yordami bilan uyg‘unlashtirilishi kerak[8]. Psixolog o‘quvchining o‘qishga munosabati, diqqatini jamlashi, o‘ziga ishonchi va hissiy holatini kuzatadi; maxsus pedagog o‘qishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan individual mashqlarni tanlaydi; logoped fonematik idrok, tovush talaffuzi va nutqni tushunish bilan bog‘liq ehtiyojlar yuzasidan tavsiyalar beradi. O‘qituvchi esa ushbu tavsiyalarni kundalik dars jarayoniga moslashtiradi. Ota-onalar bilan hamkorlik uyda o‘qish uchun muntazam, lekin bolaga ortiqcha bosim yuklamaydigan sharoit yaratishga yordam beradi.

Inklyuziv sinflardagi pedagogik hamkorlik bo‘yicha tadqiqotlar umumta’lim o‘qituvchisi va maxsus pedagog o‘rtasida maqsadlarni kelishish, vazifalarni taqsimlash, darsni birgalikda rejalashtirish va natijalarni muntazam tahlil qilish muhimligini ko‘rsatadi[4, 5]. Hamkorlik faqat muammo yuzaga kelganda maslahat olish bilan cheklanmasligi, balki oldindan rejalashtirilgan tizimli jarayon bo‘lishi lozim.

Buning uchun quyidagi ish tartibini joriy etish maqsadga muvofiq: birinchidan, o‘quvchining o‘qish ko‘nikmalarini dastlabki kuzatish va qisqa topshiriqlar orqali aniqlash; ikkinchidan, qiyinchilikning xususiyatiga mos maqsad belgilash; uchinchidan, darsdagi umumiy topshiriqlar bilan birga individual yordam choralarini rejalashtirish; to‘rtinchidan, o‘quvchining natijalarini muntazam qayd etish; beshinchidan, o‘qituvchi, mutaxassislar va ota-onalar bilan kelishilgan holda yordam usullarini yangilash. Bu jarayonda o‘quvchining shaxsiy ma’lumotlari maxfiyligi va sha’ni hurmat qilinishi zarur.

Yuqorida keltirilgan tahlillar asosida quyidagi tavsiyalarni ilgari surish imkonini berdi:

- o‘qish tezligi bilan bir qatorda matnni tushunish, asosiy fikrni aniqlash, bevosita va yashirin ma’lumotni topish, voqealar ketma-ketligini tiklash, xulosa chiqarish va fikrini dalillash ko‘nikmalari ham kuzatilishi kerak. Baholash natijalari o‘quvchilarni bir-biri bilan taqqoslash uchun emas, balki keyingi ta’limiy yordamni rejalashtirish uchun ishlatiladi.

- dastlab qisqa va sodda matnlar, so‘ngra mazmuni murakkabroq matnlar taklif etiladi. O‘quvchiga zarur bo‘lganda ko‘rsatma qayta tushuntiriladi, topshiriq qismlarga

ajratiladi va javob berish uchun yetarli vaqt beriladi. Biroq yordam darajasi o‘quvchining mustaqil ishlash imkoniyatini rivojlantirish maqsadida asta-sekin kamaytiriladi.

- har bir o‘quvchi uchun qisqa muddatli o‘quv maqsadlari, foydalaniladigan usullar, mas'ul shaxslar va natijani qayta ko‘rib chiqish muddati belgilanishi mumkin. Hamkorlik uchrashuvlarida (ota-onalar yig‘ilishi) faqat qiyinchiliklar emas, balki bolaning erishgan yutuqlari va samarali bo‘lgan usullar ham muhokama qilinishi kerak.

- ota-onalarga uyda birgalikda kitob o‘qish, matn yuzasidan sodda savollar berish, bolaning fikrini tinglash va harakatini rag‘batlantirish bo‘yicha qisqa tavsiyalar beriladi. Uy sharoitidagi mashg‘ulotlar maktabdagi maqsadlar bilan uyg‘un bo‘lishi, lekin bolada o‘qishga nisbatan salbiy munosabatni kuchaytirmasligi lozim.

- o‘qish savodxonligini baholash, differensial topshiriqlar tuzish, ta'lim ehtiyojlarini aniqlash va mutaxassislar bilan hamkorlikda ishlash bo‘yicha amaliy seminarlar tashkil etish zarur. Bunda o‘qituvchilar o‘zaro tajriba almashishi, samarali topshiriqlar bankini yaratishi va o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasini tahlil qilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta'lim sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini rivojlantirish ta'lim mazmunini moslashtirish, individual ehtiyojlarni hisobga olish va pedagogik-psixologik yordamni muvofiqlashtirishni talab etadi. O‘qish savodxonligi faqat texnik o‘qish bilan emas, balki matnni anglash, tahlil qilish, xulosa chiqarish va olingan axborotdan foydalanish qobiliyati bilan baholanishi lozim. O‘qituvchi, psixolog, maxsus pedagog, logoped va ota-onalar hamkorligi muntazam kuzatuv hamda aniq maqsadlarga asoslangan taqdirda, har bir o‘quvchining ta'lim jarayonidagi ishtiroki va rivojlanish imkoniyatlari kengayadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Mullis, I. V. S., von Davier, M., Foy, P., Fishbein, B., Reynolds, K. A., & Wry, E. (2023). PIRLS 2021 International Results in Reading. Boston College, TIMSS & PIRLS International Study Center. https://www.iea.nl/publications/study-reports/international-reports-iea-studies/pirls-2021-international-results

2. UNESCO. (2017). A Guide for Ensuring Inclusion and Equity in Education. Paris: UNESCO. https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000248254

3. CAST. (2024). Universal Design for Learning Guidelines, Version 3.0. https://udlguidelines.cast.org/

4. Rix, J., Hall, K., Nind, M., Sheehy, K., & Wearmouth, J. (2009). What pedagogical approaches can effectively include children with special educational needs

in mainstream classrooms? A systematic literature review. Support for Learning, 24(2), 86–94. https://doi.org/10.1111/j.1467-9604.2009.01404.x

5. Teaching for inclusion: A review of research on the cooperation between regular teachers and special educators in the work with students in need of special support. (2021). International Journal of Inclusive Education. https://doi.org/10.1080/13603116.2020.1846799

6. Третьякова Е. М. Развитие читательской грамотности на уроках литературного чтения в начальной школе. КиберЛенинка. https://cyberleninka.ru/article/n/razvitie-chitatelskoy-gramotnosti-na-urokah-literaturnogo-chteniya-v-nachalnoy-shkole

7. Turg‘unboyev S.F. Inklyuziv ta’lim sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonligini shakllantirishning nazariy asoslari. “Maktab ta’limi: muammolar, izlanishlar, yechimlar”. 2026. №9. 108–113-b. DOI:10.66023/MT/v_i399/429

8. Turg‘unboyev S. F. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘quv faoliyati samaradorligini oshirishda o‘qish savodxonligining ahamiyati. (2026). «Maktabgacha Va Maktab ta’limi» Jurnali, 4(9), 135-139. https://doi.org/10.5281/zenodo.22341699

8. Слюсарева Е. С. Комплексное сопровождение субъектов инклюзивного образовательного процесса: из опыта экспериментальной работы. КиберЛенинка. https://cyberleninka.ru/article/n/kompleksnoe-soprovozhdenie-subektov-inklyuzivnogo-obrazovatelnogo-protsessa-iz-opyta-eksperimentalnoy-raboty

9. Чарикова А. С. (2017). Образовательные результаты младших школьников при работе с информационными естественнонаучными текстами. Научно-методический электронный журнал «Концепт». https://e-koncept.ru/2017/171015.htm